

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10557205>

Muyassarxon Achildiyeva

*Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti
Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrasida katta o'qituvchisi*

Muhammadjonova Mohinur

*Farg'ona davlat universiteti "San'atshunoslik" fakulteti
"Musiqi ta'limi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona vodiysiga xos yirik ashula yo'li hamda o'ziga xos ijro uslubi va usuli bo'lgan katta ashula yoki patnusaki ashula haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, mazkur janrning tarixiy ahamiyati, ustoz-shogird maktabi an'analari borasida fikr-mulohazalar maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: patnusaki, katta ashula, yovvoyi, Ushshoq, Chorgoh, aruz, badihago'ylik, professionalizm, g'azal, tembr.

Xalq og'zaki ijodi durdonalarini keng targ'ib etib kelayotgan, Maqom, katta ashulla, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi noyob madaniy meros namunalari bo'yicha an'analarni davom ettiradigan maktablar yaratamiz²²

Sh.Mirziyayev



Katta ashula xalqimizning eng qimmatbaho boyliklaridan biri bo'lib, bugungi kunda yosh san'atkorlar orasida uning ijrochilari juda kam uchraydi. San'atimizning qadimiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan katta ashula ilmiy izlanishlarga muhtoj. Buni katta ashulani

²² Prezident Shavkat Mirziyayev raisligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi 2023-yil 22-dekabr

2009-yilda YUNESKOning "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" Rezentativ ro'yxatiga kiritilganidan ham bilishimiz mumkin. Qolaversa, katta ashulani muhofaza qilish, saqlash va targ'ib etish bo'yicha tarjiba loyihasi ASSU YUNESKOning (Yaponiya) Oltin medali bilan taqdirlandi.

Katta ashula qadimiy musiqa janrlaridan biri bo'lib, uning kelib chiqishi hozirgi kunda mutaxassislar o'rtasida ko'plab bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu mavzuni kengroq o'rganish va yosh san'atkorlar orasida targ'ib etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir.

Katta ashula - Farg'ona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula yo'lidir. Odatda, 2-5 hamnafas ashulachi (hofiz) tomonidan cholg'u jo'rligisiz, qo'llariga patnis yoki likobcha ushlagan holda aytiladi. Ko'pincha yuqori pardalarda va keng nafasda ijro etilib, o'ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi. Katta ashula ijrochiligida xonanda yonidagi hamkasblarini har tomonlama sezish, ular bilan hamnafaslikni–jo'rnavozlikni his qilish va hamohang bo'lib ijro etish malakalari shakllanadi. Katta ashula ijrochisi bo'lgan hofizning oldida qator vazifalar turadi. U jo'rnavoz bilan birgalikda bir tan, bir jon bo'lib ijro qilishi lozim. Ayniqsa xonandalarga xos bo'lgan ijrochilik nafasi, tovush cho'zimi, uning tozaligini har doim eshitish nazorati orqali boshqarib borishi va usul sezgisini jo'rnavozining metro-ritmik tafakkuri ila bo'ysundirishi va moslashishi katta ahamiyatga ega. Hofizning talaffuzi, so'zlarni ovozda ijro etishda og'iz artikulyatsiyasi, uni shakllantirilishi malakalarini yaxshi egallaganligi, jamoa bo'lib ijro qilishning muhim shartlaridan biridir.



Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo'shiqlari, marsiya, navha, ayolg'u qo'shiqlari hamda aruz vaznidagi g'azallarning qadimgi o'qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Odatda katta yig'in, sayil va tomoshalarda aytilgan. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatombuz g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yo'nalishidagi she'rlar ham kuylangan. Xalq orasida "Do'stlar", "Ko'p erdi", "Yolg'iz", "Adashganman", "Oh kim", "Rahm aylamas", "Bir kelsun", "Ey, dilbari jononim" kabi katta ashulalar keng tarqalgan. Katta ashula ijrochiligida badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar bir-biriga mukammal va uzviy bog'lanishini ta'minlaydi, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo'llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an'anaviy ustoz-shogird maktabini o'tgan, she'riyat qonunlari va ijrochilik an'alariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo'lishi

lozim. Hofizlar, odatda, she'r bandidagi boshlang'ich misralarning har birini galma-gal, so'nggi misralarni jo'r bo'lib ijro etadilar.

Ba'zi musiqashunoslar bu janrni "diniy mazmundagi so'zlar bilan aytilgan musiqalar bilan bog'liq" desa, boshqalari "katta ashulachilik she'rlarni baland ovozda, yuqori pardada kuyush orqali vujudga kelgan", degan fikrni bildiradilar. Mutaxassislar orasida ushbu san'atni qadimda kambag'alchilik davrlarda paydo bo'lgan, uni musiqiy sozlarni sotib olishga qurbi etmagan baland ovozli xonandalarning san'ati, deb talqin etuvchilar ham yo'q emas. Ayrim san'atkor yoshlar katta ashula deganda, g'azalning biror bir kuyga tartibsiz ravishda solingan ohang deb nomlashga urinishmoqda. Aslida esa, katta ashula ma'lum mezon va qonuniyatlarga asoslangan, asrlar osha shakllanib ustoz xonandalar tomonidan asrab-avaylab rivojlantirib kelinayotgan mustaqil va yetuk o'zbek mumtoz musiqasining janrlaridan biridir.²³

Katta ashula Farg'ona vodiysida shakllangan va ashula ijrochiligining alohida yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga katta ashula, ijro amaliyotida charxlanib, o'z davrining mohir san'atkorlarini tarbiyalagan va ashula ijrochiligi san'atiga xos bo'lgan bir qator unsurlarni mukammal tarzda o'zida mujassam etgan katta maktabdir. Zotan, uning ijrochilik mezonlari ham xonandalardan katta iste'dod, ovoz, idrok, zukkolik va mahorat talab etadi. Bu nafis san'atning bilimdonlari, yaxshi biladigan, mukammal egallagan ustozlardan o'rganish, shunga munosib targ'ib etish va shu yo'lda yangi namunalarni ijod etish juda ahamiyatlidir. Eng muhimi zamonaviy ijrochilarni tarbiyalash, katta ashulachilarning yangi avlodini tarbiyalash dolzarb vazifalardan biridir. Katta ashula san'ati ma'lum tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan, xalqning ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy ehtiyojlari o'laroq, hayotida o'z izini qoldirib kelayotgan betakror aytimlar sirasiga mansub. Ma'lumki, katta ashulalar o'zining ijodiy yo'llarida ikki uslubda ijod etilib kelingan. Birinchisi maqom pardalariga mos va muayyan qoidalari asosida yuzaga kelgan katta ashulalar, ya'ni musiqiy til bilan aytganda maqom pardasida ijro etilgan. Ikkinchisi, bastakorlar tomonidan turli uslublarga moslashtirib yaratilgan katta ashulalardir.

²³ Elov Mirshod. Ashulachilar ansambli. Toshkent-2019



XX asrning 2-yarmida katta ashulaning yangi ashula-cholg' u yo'llari, yakkaxon hofizga mo'ljallangan turlari yuzaga keldi. Mazkur namunalarda cholg' u ansambli hamnafas hofiz vazifasini bajargan, ijroda erkin uslub saqlanib qolgan. Katta ashulaning bu uslubi Jo'raxon Sultonov tomonidan yaratilgan. Ayrim maqom sho'balari (Bayot, Chorgoh, Ushshoq) ham katta ashula yovvoyi maqom uslubida aytilgan. Mohir sozandalar cholg' u (nay, surnay, g'ijjak) yo'llarini yaratdilar. Rivojlanish mobaynida ijrochilik Qo'qon, Marg'ilon, Toshkent, Namangan- Andijon maktablari shakllangan. Erkaqori Karimov, Sherqo'zi Boyqo'ziyev, Haydarali Hikmatov, Meliqo'zi Yusupov, O'timboy Sarimsoqov, Turdiali Ergashev, Otamirza Abdurahmonov, Mamatbuva Sattorov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, Boltaboy Rajabov, Ibrohim Is'hoqov, Musajon Orifjonov, Orif Alimahsumov, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Akbar Haydarov, Eshmat Haydarov, Ochilxon Otaxonov, Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov, Jo'raxon Yusupov, Hamroqulqori To'raqulov, Rasulqori Mamadaliyev, Solijon Hoshimovlar katta ashula ijrochiligida shuhrat qozongan. XX asr o'rtalarida katta ashula ayollar tomonidan ham o'zlashtirilib, Xalima Nosirova, Zaynab Polvonova va Fotima Boruxovalar tomonidan birgalikda ijro etilgan. 80-yillarda katta ashula ijrochiligi Munojot Yo'lchiyeva, Zamira Suyunova, Matluba Dadaboyeva, Hurriyat Isroilovalarning, XXI asr boshida esa Nodira Pirmatova va Dilnura Qodirjonovalar repertuaridan ham joy oldi.

Katta ashula o'rta asrlarda marosim va mehnat qo'shiq-aytimlari negizida, mumtoz she'riyat va xonandalik ijro madaniyatining rivojlanishi, mumtoz g'azallarni an'anaviy o'qish asosida yuzaga kelib rivojlandi. Uning o'tmishdagi namunalarida ishqiy-lirik g'azallar bilan bir qatorda, didaktik (nasihat), tasavvuf ruhidagi she'rlar ham kuylangan. Keyinchalik esa Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Amiriy, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa shoirlar she'rlari bilan aytila boshlangan. XX asrda Xabibiy, Sobir Abdulla, Chustiy, O'tkir Rashid, Erkin Vohidov kabi zamonaviy o'zbek shoirlari she'rlari ham qo'llanilgan. Katta ashula taraqqiyotida masnaviy, ruboiy, muhammas, musaddas kabi poetik janrlar ham

muhim rol o'ynaydi.²⁴ Xususan, bunga misol tariqasida Miskinning "Ey, dilbari jononim" she'rini keltirish mumkin:

Ey, dilbari jononim, ko'p nozu itob etma,
Yuz jabru jafo birla holimni xarob etma.
Mastona ko'zing birlan qoshing qilichin tortib,
Bir-biriga himo aylab, qatlimga xitob etma.

Aruz vaznida yozilgan bu g'azal tinglovchilarda zavqu-shavq, turfa ruhiy kechinmalar uyg'otib, poetik asarlarning katta ashula janri orqali xalq orasida keng tarqalishiga olib keldi. Musiqiylik - she'riyatning eng asosiy fazilatlaridan, deb bejiz aytilmagan. Shuning uchun ham katta ashula yoki ashula deyilganda, xalq nazarida musiqa asarlari namoyon bo'ladi, vaholanki, musiqa asarlarining o'zi ham mustaqil mazmunga ega va inson qalbining eng nozik his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan san'at turlaridandir.

Katta ashulaning kompozitsion tuzilishi to'rt tarkibiy qismdan iborat: daromad (boshlang'ich kuy tuzilmasi), o'rta avj (o'rta kuy tuzilmasi), avj (baland parda kuy tuzilmasi) va furovard (daromadga qaytish). Ba'zi katta ashulalar o'rta avj yoki katta (baland) avjdan ham boshlanishi mumkin. Bu holda ashula kuyi yuqori registrdan pastki registrga qarab tushib boradi. Katta ashula kuylari rechitativ-kuychang tarzda bo'lib, uning kuy harakati bosqichma-bosqich, to'lqinsimon holda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Sakramalar, peshrav yurishlar kuy tuzilmasida ham qo'llanadi. Erkin ritmik uslubda ijro etilgan katta ashulalarda kuy tuzilmasi bir nafasda, misra shaklida aytiladi. Katta ashulaning shakllanishida "xang" (xonish, hirgoyi)lar juda katta ahamiyatga ega. Ular katta ashula kuyini kuychang holatga olib keladi.

Hozirgi kunga qadar katta ashula janrining qayerda va qachon kelib chiqqani haqida aniq dalillar topilgan emas. Mutaxassislar va xonandalarning turli manbalardagi katta ashula haqidagi fikrlari musiqashunos olim Rustam Abdullayevning "Katta ashula janri va ijrochilari" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasida keltirilgan. Jumladan, sharq musiqashunosi Belyayev "katta" deganda asarning so'zlari ochiq va ma'nolari kattaligiga urg'u beradi, Uspenskiy va qo'qonlik hofizlar esa katta ashula "Samo" ma'nosiga yaqin bo'lib, shunday musiqalardan kelib chiqqanini ta'kidlaydi. Mashhur katta ashula ijrochilaridan Akbarali Boboyev, Mamadali Yusupov, Sobirjon Azizov, Saidali Hoshimovlar bu san'atni katta xonalarda hamda ochiq havoda musiqiy sozlarsiz ijro etilgani uchun katta ashula deyishgan. Maqsud Hamidov, Inomjon Isroilov, Odiljon Yusupov, Mamadaziz Umarov, Erkin Haydarov, Orif hoji Alimahsumov va boshqa xonandalar bu janrning ijrochi ovozlari kuchli ampulada katta bo'lishi lozimligi, har-bir eshituvchini mahliyo qilishi bilan ushbu nom berilgan degan fikrni bildirganlar. Muxsinjon Mirzaxo'jayev, Temurbek Baratovlarning nazarida esa katta ashula janrining she'rlari qadimda juda chuqur, purma'no, diniy bo'lganligi, avjlari ham juda yuqoriligi sababli katta atamasi qo'shilgan. Bu janrga nisbatan yana "patnis ashula", "patnusaki ashula" nomlari ham qo'llaniladi. Bunday

²⁴ O'zbek musiqasi tarixi. T., 1981.

nomlanish aslida xonandalar likopcha yoki temirli patnislarni qo'llarida ushlab aytganlari sababli yuzaga kelgan. O'zbek musiqasi tadqiqodchilari va katta ashula ijrochilari bu janrning barcha sifatlarini hisobga olgan holda ya'ni musiqiy yo'lining uzunligi, she'riy matnning ma'nodorligi va boshqa hislatlari uning nomlanishiga mos ekanligini ta'kidlaydilar.

Ma'lumki, katta ashula janrining kelib chiqishi haqida mutaxassislar turli dalillarni aytadilar. Manbaalardan birida yozilishicha, katta ashula ikki va undan ortiq xonandalarning musobaqasi orqali shakllangan. Ko'rik-tanlovning o'ziga xos shartlari bo'lgan: birinchidan, katta ashula ijrochilari boshlaydigan pardalarini va o'z ovoz ko'lamlarini aniq bilishlari lozim, aks holda avj qismiga yeta olmay qiynalib qolishlari mumkin. Bu xonandalardan eshitish qobiliyatining o'tkirligini talab etadi. Ikkinchidan, aniq doira usulisiz ashula aytish xonandalar uchun badihago'ylikda va ovozlari go'zalligini namoyon qilishda yanada erkinlik yaratib beradi. Bu xonandalardan kutilmagan nola va qochirimlar orqali yurak dardini ko'rsatib bera olishni talab etadi. Uchinchidan xonandalar ashulaning so'zlarini esidan chiqarib qo'ysalar, barcha xonandalarda uchraydigan holat, boshqa so'zlarni aytish va yamlash orqali sozlarini balandroq chalib, ovozlari pastroq chiqaradilar. To'g'ri ma'noda, sozning orqasiga berkinadilar. Katta ashulada esa buning hech iloji yo'q. Demak, so'zlarni yodda saqlash ham tanlovning muhim jihatlaridan biridir.

Katta ashulalarning ichida shundaylari borki, bu asarlarni ikki xonanda ijro etmasa bo'lmaydi, chunki ularning so'zlari va musiqiy matni bir ijrochi uchun qiyinchilik tug'diradi. Masalan: Jo'raxon Sulstonov ijrosidagi "Oh kim", "Ko'kardi Chaman", "Ey sanam", "Yodimga tushdi", Mamurjon Uzoqov ijrosidagi "Yolg'iz", "Dog'man", "Ko'p nozu itob etma", "Yor istab" va bu ashulalar ketidan ularga mos pardali ashulalarni musiqiy sozlar jo'rligida ham ijro etganlar. Orif hoji Alimahsumov ijrosida "Ko'p erdi", "O'xsharsiz", "Ey dilbari janonim", Fattohxon Mamadaliyev ijrosida "Topmadim", "O'zbekistonim" kabi katta ashulalarni esa yakka holda ijro qilsa bo'ladi.

Katta ashulalar orasida juda mashhur namunalardan biri "Bog' aro" katta ashulasi bo'lib, u Chustiyning muxammasiga bastalangan. Uning so'zlari ham, kuy yo'li ham juft xonandalar ijrosini talab etadi. Bu ashulaning ijrosi juda qiyin bo'ladi, tinglovchining qalbiga tezda yetib boradi. Chunki, so'zlari juda oson va tushunarli. Katta ashulani ijro etish qonuniyatiga ko'ra, agar ijrochilar ikki nafar bulsa, katta ashulani ijro eta boshlagan xonandaning ovozi nisbatan pastroq, ikkinchi xonandaning ovozi esa balandroq bo'lmog'i lozim. Boshlab bergan xonanda avjida olib chiqib beradi va tushirim qismini ijro etadi, ikkinchi xonanda esa avjini ijro etadi. Umuman, ijro jarayonida juftlik xonandalar biri ijro qilgan satrni ikkinchisi uzluksiz tarzda davom ettirishi kerak bo'ladi.

Yana bir katta ashula "Ko'kardi chaman" deb ataladi. Uning shunday nomlanishi "Ko'kardi chaman" deb nomlanuvchi g'azalga aytilganligi sababidandir. O'zbekiston xalq artisti Juraxon Sulstonov bu asarni katta ashulalar qonuniyatlariga bo'ysungan holda bastalaganlar. Bu asosan Marg'ilon maktabi katta ashulachilari musiqiy uslubiga xos bo'lib, unda ovoz xosil qilish qonuniyatlariga to'la amal qilingan. Umuman Farg'ona – Toshkent

ashulachilik ijro maktablarining bizgacha yetib kelishiga asosiy sababchi ham Jo'raxon Sultonovdir. Aslida katta ashulalar qonuniyatida musiqiy cholg'ular ishtirok etmaydi. Lekin Jo'raxon Sultonov "Ko'kardi chaman" ashulasida nay va ansambl ijrosidan moxirona foydalangan. Shu asardan so'ng katta ashulalar ijrosida ham musiqiy cholg'ulardan foydalanish odat tusiga kirgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarida ovoz orqali ijro etiladigan janrlar juda ko'p. Ayni paytda ko'p uchramaydigan folklor qo'g'irchoqbozlik, dostonchilik o'sha davrlarda doira bilan va umuman cholg'u sozsisiz ijro etiladigan dostonlar ham mavjud bo'lgan. Shuningdek, mumtoz shoirlarning o'tkir g'azallarini o'quvchi xonandalar hozirgacha saqlanib kelgan qo'shiq, lapar, yalla, aytishuv janrlari, uch voha maqomining aytim yo'li saqlanib qoldi va ijodiy izlanishlarga sabab bo'ldi.

1984-yildan O'zbekistov Respublikasida katta ashula ijrochilarning ko'rik-tanlovlari (Marg'ilon, 1984; Toshkent, 1987; Qo'qon, 1991; Shahrisabz, 1994) o'tkazilmoqda. Katta ashula ijrochilik yo'llari an'anaviy mahorat maktablari va musiqa o'quv yurtlarida o'zlashtirib kelinmoqda. 2001-yil Andijonda I Respublika professional Katta ashula ijrochilari tanlovi va ilmiy-amaliy konferensiyalari o'tkazildi. Katta ashula an'alarini saqlashda ilmiy tadqiqotlar, nashrlar, audio va video yozuvlar, filmlar, teleko'rsatuvlar, tanlovlar, ayniqsa, yoshlar orasida ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Katta ashula ijrochilari VII Xalqaro Musiqa Kongressi (Moskva, 1971), IV Osiyo Musiqali Minbari (Filippini, 1976), Yevropa folklor festivali (1985), AQSH musiqa folklor festivali (1987), "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali (Samarqand, 1997-2015), "Asrlar sadosi" An'anaviy madaniyat festivali (O'zbekiston, 2008-2013) kabi yirik anjumanlarda, Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlarida o'z ijrochilik mahoratlari namoyish etmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek musiqasi tarixi. T., 1981.
2. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963.
3. Istoriya muziki Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1995.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Elov Mirshod. Ashulachilar ansambli. Toshkent-2019
6. Kaykovus "Qobusnoma" Fors tilidan Muhammad Ogahiy tarjimasini, Toshkent-2006
7. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.
8. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

9. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
10. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
11. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
12. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
13. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
14. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA" LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
15. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
16. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
17. Hojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРИНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.
18. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
19. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
20. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, Vol 10 Issue02, Feb 2021ISSN 2456-5083
21. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
22. Achildiyeva M 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage *Annals of Romanian Society for Cyell Biology* 25(4) 9092-9100
23. Achildiyeva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.

24. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
25. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
26. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
27. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM *Journal of Innovation, Reforms and Development* (2022) ISSN (E):2751-1731 15-19
28. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6
29. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7 |2023 173-179
30. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7 |2023 162-166
31. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN: 2181-4384 11-14
32. Xojimamatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287 4-7
33. Ачилдиева Муюсархон Адилжоновна, Носирова Муслимахон Ойбек қизи, КОРРУПЦИЯ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» *ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022 з., 6 декабрь)* ISSN 2181-1571 (I-qism) 381-388 бет.
34. Ачильдиева Муюссархон Адилжоновна, Икромова Фарангис, КОРРУПСИЯ-МИЛЛИЙ ТАРРАКИЕТ ВА ЖАМИЯТ РИВОДЖИ ҚУШАНДАСИДИР. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» *ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022, 6 декабрь)* ISSN 2181-1571 (I-qism) 389-395 бет.
35. Хожимаматов Азимжон Файзулло ўғли, Назархўжаева Рухшонабону Умид қизи, КОРРУПЦИЯ – АСР ВАБОСИ. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» *ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ*

АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022 з., 6 декабрь) ISSN 2181-1571 (I-qism) 396-401 бет.

36. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development* ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)

37. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL "An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal" 2 (4) 460-463 bet.

38. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022)* ISSN 2795-7683 54-56 bet

39. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJIBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)* 9(5) 240-244

40. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИНГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ "ENGLAND" *MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION* Vol. 10 No. 1 (2023)

41. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Science and innovation*, 2(C7), 71-75.

42. Jalilova, R. (2023). User experience and user interface design. *Scientific Collection «InterConf»*, (158), 237-242.

43. Djalilova, R. (2023). THE DIFFERENCE OF CREATIVE AND EDUCATIONAL TEACHING OF STILL LIFE IN PAINTING, PROBLEMS IN THE EDUCATION OF YOUNG EDUCATORS. *Science and Innovation*, 2(6), 29-33.

44. Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 18, 72-76.

45. Djalilova, R., Ahmedbekova, M., & Polatov, D. (2023). Big data as a means of management by construction, or "Hypernudge". In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 03012). EDP Sciences.

46. Ачилдиева М., Икромова Ф. Хоровое искусство в Узбекистане Ботир Умиджонов *Евразийский журнал гуманитарных и социальных наук (Брюссель, Бельгия 2022)* ISSN 2795-7683 54-56 бет